

КИШИ АСЛЫ БИЛМӘК ТИЛӘСӘ АЧУҚ...

Boqijon TO‘XLIYEV

Filologiya fanlari doktori , professor

Toshkent davlat sharqshunosik universiteti

Tel: 97 450 64 90

Annotatsiya: Maqolada yetuk adabiyotshuns olim, filologiya fanlarinomzodi R.Barakayevning ilmiy ijodi haqida ayrim kuzatish va qaydlar o‘z aksini topgan. Unda olimning asosiy faoliyat qirralari, bundagi o‘ziga xosliklar, ilmiy natijalarning ixcham tahlili taqdim etilgan.

Tayanch so‘zlar: Rahmatilla Barakayev, olim, bolalar adabiyoti, kitob, maqola, faoliyat.

Rahmatilla Barakayev bugungi o‘zbek adabiyotshunosligining sanoqlarida hamisha qayd etiladigan vakillaridan biri. Bu sanoqlarga kirish uchun esa uning butun umri, butun ijodiy faoliyati sarf bo‘ldi, safarbar bo‘ldi.

Dunyoda olimning turi ham, sanog‘i ham ko‘p. Ularning bir toifasi o‘z ilmi bilan mashhur. Bu fazilat tufayli ularning nomlari tillardan tushmaydi. Ayrim olimlarning fanda erishgan daraja va yutuqlari juda katta bo‘lmasa-da, insoniy fazilatlarini tufayli el ardog‘ida, ko‘pchilikning tilida bo‘ladi. Yana bir toifa esa ilmiga ko‘ra ham, insoniylik darajasiga ko‘ra ham bir xilda e‘zoz va e‘tiroflarga chulg‘anib yuradi. Rahmatilla ayni mana shu guruhga mansub.

Bizning zamonimizda sun‘iy qomusiylikka da‘vogarlar sonining ko‘payibrog‘ borayotgani ko‘zga tashlanadi. Har holda ilm-fan sohalarining har birida o‘ziga xos mezon va me‘yorlar tizimi mavjud. Bunga qaramasdan, birinchi navbatda, har bir insonning, xususan, fan egaligiga da‘vogar bo‘lganlarning o‘z-o‘ziga qo‘ygan talablar tizimi ham aniq shakllangan bo‘lishi maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Shunda, mening nazarimda, uning o‘zi kamroq qiynaladi, muhimi, mana shunda asosiy kuchni o‘zini erkin sezadagan sohalarga ko‘proq bag‘ishlashni uddalaydi. Gulxaniy xazratlari “Zo‘rii behuda miyon meshikanad” [Glxaniy, 9.14]. degan edilar. Xalqda “Chiranma g‘oz, hunaring oz” degan maqolni ham bor [Shomaqsudov, 9.364].

Rahmatilla mana shunday dabdababozu manmanlardan farqli ravishda fanda o‘z bilimi, kuchi, qiziqish va intilishlarini, ixchamroq qilib aytish lozim bo‘lsa, butun iqtidor va qobiliyatlarini ongli ravishda bir o‘zanda birlashtira olgan olimlar toifasiga kiradi.

Qiziqish doiralari yaxlit, bir o‘zanda birlashuvi esa juda katta ilmiy-ijodiy oqimni yuzaga keltirgan. Bu oqimning sathi keng, chuqurlik darajasi teran, shiddati ham shunga munosib. Uning nomi **Bolalar adabiyotidir**. Olimning barcha kuzatishlari, to‘xtamlari, xulosalari mana shu yo‘nalish bilan bog‘liq.

Bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. U kattalar adabiyotining yonida yashaydi, biroq shunga qaramasdan, uning o‘zigagina xos

jihatlar ham talaygina. Bu talablarning o‘zagini esa Rahmatilla talqinida, mana nimalar tashkil etadi:

Tasvirning bola yoshi va saviyasi bilansi uyg‘unligi;

Tasvirda milliy va ma’naviy unsurlarning bo‘rtib turishi;

tasvirning tiniq, toza, sodda va lo‘ndaligi;

Tasvir tiliga alohida e‘tiborning mavjulgisi;

Voqea va tuyg‘ular tasvirida bolaning ongi va fantaziyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi unsurlar ishtiroki;

Asar qahramonining jozibador bo‘lishi, o‘ziga mahliyo qiluvchi qirralarning oshkora ko‘rinishi;

She’riy yoki nasriy bo‘lishidan qat’i nazar, ularda bolalar oson hazm qila oladigan mantiq, ularning tabiiy izchilligi, hayotiy va badiiy mantiqning uyg‘unligi;

Muhimi, bayon tarzining yuqorida aytilgan qirralarning barchasini bola tomonidan ilg‘anishiga keng imkon beradigan ifoda uslubiga ega bo‘lishi lozim.

“Bobolardan bolalarga” kitobidan [Barakayev, 2] boshlab ayni mana shu bolajaonlar ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlangan “Bolalar adabiyoti” [Barakayev, 3] darsligigacha bo‘lgan oraliqda yaratilgan antologiya va darsliklarda, tahlil uchun tanlab olingan badiiy asarlarda ayni mana shu mezonlarning qaytarzda namoyon bo‘lishi, ularning tanlanishi, tahlil etilishi va ilmiy baholanishi uchun bosh asos vazifasini ado etgan.

Rahmatilla bolalar adabiyotini qadimiy davrlardan hozirgacha bo‘lgan oraliqdagi barcha silsilalarni muntazam tarzda o‘rganib kelmoqda. Ayniqsa, buyuk jadidlar davri uning diqqat markazidan ancha mustahkam tarzda o‘rin olgan. Uning Abdulla Avloniy bilan bog‘liq ilmiy muammolarni ancha keng va batafsil tahlillari fikrimizning dalili bo‘la oladi. Adibning bir asari ustidagi tadqiqotni adabiyotshunoslikning bugungi yutuqlari asosida, manbashaunoslik va matnshunoslikning temir qonunlariga rioya etgan holda amalga oshirgani esa shoyoni tahsindir. Gap Abdulla Avloniyning “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” asari [Barakayev, 1] ustida ketayotganini mutaxassislar yaxshi bilishadi. Agar kimda kim bu so‘zlarga shubha bildirmoqchi bo‘lsa, o‘sha kitobning o‘zini o‘qimasa ham, uning so‘zboshisini, so‘ngso‘zini, berilgan izoh va sharhlarini bir nazardan o‘tkazsa murod hosil bo‘ladi.

U Abdulla Avloniy ijodi bahonasida [Barakayev, 7] o‘zbek bolalar adabiyotining tarixini varaqlaydi, uning rivojlanish yo‘llariga nazar tashlaydi, bu boradagi o‘ziga xosliklarni aniqlaydi, keyingi tadqiqotlar istiqbolini belgilashga harakat qiladi.

Uning bolalar adabiyotiga umumiy baholari maqola va kitoblarida, ayniqsa, darslik va antologiyalarida bo‘y ko‘rsatsa, bu adabiyotning individual shaxs

ijodkorligiga bog‘liq jihatlari ayrim bolalar shoiri va yozuvchilariga bag‘ishlangan [Barakayev 1; 6] kitoblarida namoyon bo‘ladi.

E’tirof etish lozimki, bizda keyingi paytlarda adabiy hodisalarga, umuman olganda, filologik jarayonlarga munosabat bildirishda tanqidiy ruh anchagina pasayib borayotir. Tanqidning kuchi o‘tmaslashib borayotgani ham ochiq seziladi. Mavjud tanqidchilar esa o‘zlarini tobora noqulayroq sezib borishmoqda. Bu tanqid egasiga boshqacharoq qarashlarning avj olayotgani, ularga nisbatan nodo‘stona munosabatlarning oshkorlashib borayotgani bilan ham tasdiqlanadi. Bu jihatdan endi Rahmatillani ko‘pchilik tomonida emas, balki o‘sha “ozchilik” tomonida ko‘ramiz. Buni himoya kengashlari, ularning arafasidagi seminar yig‘ilishlari ko‘chirmalari yoki stenogrammalari bilan tanishgan o‘rtoqlar yoxud o‘sha jarayonda ishtirok etganlar tasdiqlashi mumkin.

Rahmatillada “yaxshi olim” degan ifodaga loyiq va munosib bo‘ladigan barcha fazilatlar juda go‘zal tarzda mujssamlashgan. U adabiyot tarixidan so‘z ochganida, adabiyot nazariyasi borasida bahs yuritganida, adabiy jarayonga daxl qilganida yoxud tarjimaning nazariyasi yoxud amaliyoti haqida mulohaza bildirganida o‘z me‘yor va mezonlari bilan yondashadi. Shunga ko‘ra, u topgan fakt va materiallar yangi, talqinlar ohorli, xulosalar keskin, ammo haqqoniy, shunga ko‘ra, ma‘qul va manzur bo‘lib yuzaga chiqaveradi.

U umrining biror lahzasini behuda sarflagan emas. Butun ongli faoliyati ilm-fan yo‘liga baxshida bo‘lgani bilan e’tiborga loyiq. Ayni paytda, u ilmning mashaqqatli yo‘lidagi barcha qiyinchiliklarni o‘z tanasidan o‘tkazgan, xuddi shuning uchun ham bu yo‘lda o‘sha “sarguzasht”larni bugun noixtiyoriy tarzda boshidan kechirayotganlar “toifasi”ning dardu hasratlarini yaxshi biladigan, tushunadigan, ularga yordam qo‘lini cho‘zishga tayyor ustozlardan biri. Bu ilm sarhadlariga ilk qadamdarini qo‘yayotgan tajribasiz yoshlardan to Rahmatillaning etgiini ustoz sifatiida tutgan shogirdlargacha bir ovozdan tasdiq etiladigan haqiqatlardan biridir.

Rahmatillaning ilmiy faoliyatidagi juda katta davr tashkiliy ishlar bilan bog‘lanib ketgan. Mening nazarimda, uning O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutidagi ilmiy kotiblik lavozimidagi staji hamma rekordlarni ortda qoldirgan bo‘lsa kerak.

Ilmiy kengashdagi a‘zoliklar, jurnal tahriritidagi faoliyat ham bularning mantiqiy davomi sifatida ko‘zga tashlanadi.

Hadisi shariflarda munosib gaplar nihoyatda ko‘p. Ulardan bittasi, ayniqsa, e’tiborga molik. Unda aytilishicha, “Yaxshi odam o‘z yaxshiliklarini o‘z quloqlari bilan ham eshitsin”! Rahmatilla Barakayevga bugun aytilayotgan iliq so‘zlar mana shu hadis mazmuniga mos va muvofiq bo‘layotganini qayd etish joiz.

O‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shimchalar silsilasida “-boz” degan qo‘shimcha ham bor. U ancha serunum affikslar qatorida turadi. Bu affiks Rahmatilla faoliyatidagi o‘ziga xos, alohida qirrasini izohlab berishiga ko‘ra mu‘tabardir.

Men bu yerda Rahmatillaning jo‘rabozligi haqida gapirmoqchiman. Uning jo‘rabozligi esa bevosita olimning shaxsiyati, uning qalbi bilan bevosita aloqador. U ilm ahlining jo‘rasi, jo‘rabozidir. Zero, undagi tabiiylik va samimiyat, yuz va ko‘ngil ochiqligi, ko‘rsatilgan muruvvat yoki himmatdan, boshqalardan oldin o‘zi ko‘proq lazzat va huzur topadigan jo‘rabozlarning yirigidir. (Ushbu tezis aksioma bo‘lgani uchun unga dalil va misollarni keltirishdan o‘zimizni tiyamiz – B.T.)

XI asrning buyuk donishmandi Yusuf Xos Hojib insonning yaxshisi qanday bo‘ladi?– degan savolni beradi. Bu savolga uning o‘zi ko‘plab javoblarni ham bergan. O‘shalardan bittasida, jumladan, shunday deyiladi:

Kishi asly bilmək tiləsə achuq
Kөңyl til qylymchy bu ishkə tanuq.

mazmuni

Kishi aslini aniq bilishni istasang,
Ko‘ngli, tili hamda fe‘l-atvori bularga isbot bo‘la oladi.

[Yusuf Xos Hojib,11.640-641]

Agar kimdakim Yusuf Xos Hojibning mulohazalariga isbot talab qiladigan bo‘lsa, marhamat. Bunga Rahmatilla do‘stimiz eng munosib misol bo‘la oladi. Buning uchun guvohlikka mana shu anjumanda hozir ishtirok etib turganlarning barchasiai navbat kutib turibdi. Vallohu a‘lam.

Adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom (Nashrga tayyorlovchi, lug‘atlar va so‘ngso‘z muallifi R.Barakayev). – Toshkent: Toshkent islom universiteti”, NMB, 2018.
2. Bobolardan bolalarga. Nashrgatayyorlovchi R.Barakayev. – Toshkent: Yulduzcha, 1988.
3. Barakayev va b. Bolalar adabiyoti. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: Shafolat Nur Fayz, 2022. - 320 bet.
4. Barakayev R. Bolalarga beraylik dunyoni. – // Barakayev R.Jonajonim, she‘riyat (80-yillar o‘zbek bolalar she‘riyati haqida ba‘zi qaydlar). – Toshkent: Cho‘lpon, 1997. - 88 bet
5. Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar. – Toshkent: Akademnashr, 2014 – 6,45 b.t.)
6. Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. – Toshkent: Fan, 2004. – 160 bet.
7. Barakayev R. Bolalarga beraylik dunyoni. – // O‘zbek bolalar antologiyasi. Ikki jildlik. I jild. She‘riyat. Nashrga tayyorlovchilar T.Adashboyev., A.Akbar. – -

Toshkent, “O‘qituvchi” matbaa-nashriyot ijodiy uyi. “Cho‘lpon” matbaa-nashriyot ijodiy uyi. 2009. 3-24-betlar.

8. Gulxaniy. Zarbulmasal. Nashorga tayyorlovchi F.Is‘hoqov. – Toshkent, Aabiyot va san‘at nashriyoti, 1974,– B.80.
9. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma‘nolar xazinasi. – Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyotit. 2001, – B. 448.
10. Yusuf Xos Hjib. Qutadg‘u bilig (Saodatga yo‘llovchi bilim). Transkripsiya va hozirgi o‘zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi Q.Karimov. – Toshkent, Fan, 1972. – B. 964.